OHANG HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Cho‘lliyeva Gulchehra Toshpo‘latovna,
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA: Maqolada og‘zaki nutqning ajralmas qismiga aylangan ohang va uning ba’zi xususiyatlari, jumladan, ta’siri haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiylik, og‘zaki nutq, nutqiy muloqot, ohang*

Til zamonlar osha har bir millatning o‘zligini ko‘rsatuvchi, madaniyat va urf-odatlarini aks ettiruvchi bebaho manba bo‘lib kelayotganligi sir emas. N.Mahmudov ta’kidlaganidek: “Barchasining asosiy mazmun-mohiyati tabiatdagi mavjud tovushlarga taqlid qilish natijasida yuzaga keladi. Tabiatda mavjud tovushlarni qanday eshitsak, shunday taqlidiy so‘z yuzaga keladi. Tilni mana shu tarzda tasnif qiladigan bo‘lsak, til bu faqatgina aloqa vositasi emas, ko‘rish, eshitish, hattoki anglash vositasi ekanligini bilib olamiz. Yurtimizning birinchi rahbari “Tilimizdagi “andisha”, “ibo”, “hayo” degan so‘zlarni boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmaydi,” degan edi. Tillarda boshqasiga tarjima qilib bo‘lmaydigan tushunchalar mavjud. Sababi shu tushunchalar shu millatning o‘zigagina xos bo‘lgan, o‘zidagina bor va nomi ham shu tilda mavjud. Ularni tarjima qilish kerak bo‘lsa, faqatgina tavsifiy vosita yoki iboralar hamda tasvirlash yo‘li bilan tarjima qilish mumkin”[2].

Tilning qay darajada boyligi, uning birliklariga xos mohiyat, sababiyat, imkoniyatning keng va serqirraligini namoyon eta oladigan voqelik hamisha nutq hisoblanadi. Qadimdan nutq irod etuvchining til imkoniyatlaridan nutqiy sharoitga mos va xos foydalana olishi xushmuomalalik, hilmlik, shirinsuxanlik, tinglovchi ko‘nglini ayash, siyqalikdan yiroqlik kabi o‘nlab mezonlarga solib ko‘rilgan. Jumladan, sohibqiron Amir Temur ham vazifasi xabarchi yoki elchi bo‘lgan kishilarning nutqiga (xoh yozma, xoh og‘zaki bo‘lsin) jiddiy e’tibor qaratgani tarixdan ma’lum: “Har bir mamlakatning ahvolini, kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o‘rtalaridagi aloqalarni yozib, menga

bildirib turish uchun diyonatli, to‘g‘ri qalamli kishilardan voqeanavislar (axbornavis, xabarchilar) belgiladim. Bordi-yu, noto‘g‘ri narsa yozganlari menga ma’lum bo‘lib qolsa, bunday voqeanavislarni jazoladim,” deb ta’kidlanadi “Temur tuzuklari” kitobida [5]. Demak, kommunikatsiya jarayoni qadim davrlardanoq jamiyatning axloqiy, milliy mezonlarini aks ettiruvchi, shaxsning asl tabiati – “men”ligi haqida so‘zlovchi shaxsini xarakterlovchi tarjimayi hol yoki tavsif bo‘lib kelgan.

Zero, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari[2]da keltirilgan “Ardam bashi – til” maqolida ham “ardam”, ya’ni kishining odobi, fazilati, odati tili(nutqi)dan ma’lumdir, deyilishi bejiz emas. Qadim turkiy qavmlar nutqida uchraydigan “Kishi so‘zlashu, yilqi yizlashu” *(“Hayvonlar hidlashib bilishganlaridek, odamlar bir-birlarini so‘zlashib bilishadi”)* maqolida ham insonlar orasidagi muloqot jarayoniga jiddiy e’tibor qaratilganligini kuzatamiz. Yoki bu o‘rinda hazrat Alisher Navoiyning “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin”, shohbaytini eslashimiz kifoya. Demak, nutq odobi inson ma’naviyati va kamolotida yetakchi mezon ekanligi zamon va makon tanlamas ekan.

Yusuf Xos Hojibning “So‘zning o‘rni – sir” degan fikrida ham chuqur mantiq yashirin. Vaholanki, bu fikr istalgan so‘zning ma’nosi faqat kontekst(matn)da reallashadi, degan mantiqning badiiy ifodasidir. Zero, keltirilgan misollar nutqiy madaniyatning ijtimoiy turmushimizdagi informatsion qiimmatini bilib olishimizga ko‘maklashadi.

Nutqning tarkibi matn, matnning tarkibi gap, gapning tarkibi so‘z birikmasi hamda so‘zshakllardan iboratligi ma’lum. Sanab o‘tganlarimizning har biri o‘z o‘rnida o‘ziga xos grammatik butunlikni tashkil etgan holda, ularning barchasi tarkibini tashkil etuvchi asosiy birlik sifatida so‘z turadi. (Tabiiyki, so‘z ham morfema, bo‘g‘in, nutq tovushi kabi birliklarga bo‘linib ketadi.) Ammo shu o‘rinda e’tirof etish zarurki, nutqiy jarayon uchun lisonda o‘ziga xos turli paradigmatik qatorlar hosil qiluvchi biror lisoniy birlikning nutqiy hosilasi – leksik, grammatik



birlikning ahamiyatini rad etib bo‘lmaydi. Demak, to‘laqonli nutq uchun ularning barchasi zarur.

Nutq, ayniqsa, uning og‘zaki ko‘rinishida so‘zlovchi tomonidan ko‘zlangan maqsadga erishish, tinglovchiga yetkazilayotgan axborotga o‘zining munosabatini ifodalash uchun ham bir qator noverbal vositalar(imo/ishoralar, xatti-harakatlar, ohang, sukut va b.lar)dan foydalaniladi-ki, ularsiz og‘zaki nutq, ta’bir joiz bo‘lsa, libossiz tanga o‘xshab qoladi.

Rus tilshunosi N.V.Pronnikova nutqiy muloqotda ohangning quyidagi vazifalarini ko‘rsatib o‘tadi: 1) ***semantik vazifasi***: nutq maqsadini ifodalash, muhimlik darajasiga qarab jumlani turli qismlarga bo‘ladi; 2) ***ekspressiv vazifasi***: so‘zlovchining suhbatdoshi bildirayotgan fikriga nisbatan situativ hissiyotini ifodalaydi; 3) ***sintaktik vazifasi***: gapning sintaktik komponenti, ko‘pincha, umumiy integral xususiyatlariga va bitta frazasal aksentga ega bo‘lgan yagona intonatsiya guruhi sifatida shakllanadi; 4) ***evfonik vazifasi***: badiiy nutqda muloqot jarayonining o‘ziga xos ritmik, tematik xususiyatlariga qarab urg‘uning o‘rnini belgilab beradi va h.k [4].

Nutq takrorlanmas, hech bir kishining nutqini ikkinchisi aynan takrorlay olmaydi (nutqlar nutq egasiga ko‘ra, zamon yoki makonga ko‘ra, nutq ohangi yoki maqsadiga qarab o‘zaro farqlanadi). Shu o‘rinda asosiy e’tiborni nutq ohangiga qaratamiz. Har bir so‘zlovchining nutq ohangi ham (nutqning o‘zi kabi) betakror va ayni paytda nutqiy ohang so‘zlovchining maqsadi, holati, kayfiyati, xarakter-xususiyatiga qarab turli ma’nolarni yuzaga chiqaradi yoki muayyan ma’nolarga ishora qiladi.

Ba’zan o‘rganayotgan chet tilimiz talaffuzini – samarador metod sifatida – audio yoki video matnlar orqali o‘zlashtirishga harakat qilamiz. Chet tilida so‘zlashimiz ancha biyronlashib qolgan bo‘lsa-da, texnik vositalar orqali yetkazilgan nozik ma’no bo‘yoqlarini ilg‘ashimiz qiyin kechadi. Jumladan, chet tilida ifodalangan hazil yoki kinoya ohangini anglab olish, ko‘pincha, jumla intonatsiyasi orqali yetkaziladigan ajablanish, g'azablanish, nafrat, ishonch yoki



ishonchsizlik bo‘yoqlarini tushunib olishimiz dushvor. Ya’ni, chet tilini o‘zlashtirayotgan kishi o‘sha til intonatsiyasini o‘rganib olishida qiyinchilik tug‘iladi yoki o‘zga til so‘zlari-yu gaplarini talaffuz qilishda xatoga yo‘l qo‘yadi. Demak, intonatsiya ma’lum bir tilning eng xarakterli fonetik belgisidir. Intonatsiyaning asosiy xususiyati kommunikativ vazifasi bo‘lsa, uning gap ma'nosi bilan mavjud bo‘lgan bog'liqligi intonatsiyani eng muhim aloqa omillaridan biriga aylantiradi. Chunki jumlaning asosiy darak, so‘roq ma’nosi, tugagan yoki boshlanganligi kabi ma’nolarni, asosan, shu vosita belgilab beradi.

Intonolog olimlarning fikricha, nutq intonatsiyasining ikkita asosiy jihati farqlanadi, bulardan biri kommunikativ, ya’ni muloqot jarayonida ma’lumot berish va olish, savol, xabar ma’nolarini ifodalash kabi xususiyati bo‘lsa, ikkinchisi ekspressiv vazifalaridir. Ekspressiv vazifasi shundaki, so‘zlovchining muloqot jarayonidagi hissiy holatini yoki hissiy jihatdan suhbatdoshiga yetkazmoqchi bo‘lgan tuyg‘ularni ifoda etadi.

O‘zbek tili tabiatidan kelib chiqib, nutq ohangi – intonatsiyasining muloqot jarayonidagi vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin: 1) ***kommunikativ vazifa,*** ya’ni muloqot jarayonida ma’lum axborotni uzatish yoki olish vazifasini bajaradi; 2) ***ekspressiv vazifa,*** ya’ni suhbatdoshning tinglovchiga nisbatan situativ hissiyotlarini uzatish, bildirish vazifasi; 3) ***shaxsning turli individual xususiyatlarini bera olish vazifasi.***

O‘zbek tilida ohang kommunikantlarning quyidagi individual xususiyatlarini o‘zida ifodalay oladi hamda tinglovchiga bu xususda muayyan ma’lumotni yetkaza oladi: 1) turli kasb egalari nutqida kasbiga oid o‘ziga xos ma’lumotlarni bera oladi; 2) turli yoshdagi kishilar nutqida ohang o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi va kommunikantning yoshiga xos xususiy ma’lumotlarni bera oladi; 3) erkak va ayol nutqida gender o‘ziga xoslikning lingvomadaniy xususiyatlarini ko‘rsata oladi; 4) turli millat vakillarining individual milliy xususiyatlarini ko‘rsata oladi.

Insonlar o‘zaro nutqiy muloqotga kirishar ekan, ularning ijtimoiy xoslanishi, madaniy, milliy, ma’rifiy saviyasi, individual xarakteri, shug‘ullanadigan kasbi,



hunari, kundalik hayotida doimiy bajaradigan ishiga xos turli belgilar uning nutqi ohangida ham aks etadi.

Adabiyotlar

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b.

2.Кошғарий М. Девони луғатит турк. III т.– Т.: Фан, 1960. – 14-b. www.ziyozuz.com kutubxonasi

3.Mahmudov N. O‘zbek tili – xalq ruhining ko‘zgusi// "Sog‘lom avlod uchun" jurnali, 2016, 9-son.

4.Пронникова Н.В. К вопросу о функциях интонации//Фундаментальные исследования. //ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ. – № 9, 2014. – С. 1131-1135.

5. Темур тузуклари // Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж,. Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Тошкент, 1991. – 144 б.

6.Бахронова Д. Лингвокультурные особенности зооморфных фразеологических единиц // Вестник ЧелГУ. 2016. №9 (391). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturnye-osobennosti-zoomorfnyh-frazeologicheskih-edinits

7.Бахронова Д. К. Антропозоморфизмларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2018. – 100 б.

8.Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. / /Хорижий филология, 2019. – №3. – Б. 62-68.

